



G'AFUR G'ULOM IJODIYOTIDA "VAQT" SHE'RINING POETIK TAHLILI

Ergasheva Marjona Qobilovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika universiteti, tillar
fakulteti, o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-May 2023 yil

Ma'qullandi: 05-May 2023 yil

Nashr qilindi: 08-May 2023 yil

KEY WORDS

*Vaqt, Haykal, She'riyat, Umr,
Ijodkor*

ABSTRACT

Inson vaqti bu uning umridir. Hayotimizda har bir o'tayotgan soniyalar oltinga teng. Vaqt bugunimizdir, o'tib ketganida uni ortga qaytarish hech kimsaning qo'lidan kelmaydi. Kishi o'z zamoni va vaqtining qadrini bilishi, hatto biror lahzasini behuda o'tkazmasligi va shu asnoda eng go'zal yaxshiliklarni qilmog'i lozim. Doimo niyati pok bo'lgan va Allohga yaxshi gumonda bo'lgan insongina Qalbida halovat topmog'i mumkin..

O'zbek adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri G'afur G'ulom 1903 yil 10 mayda Toshkent shahrining Qo'rg'ontegi mahallasida tavallud topdi. To'qqiz yoshida otasidan, o'n besh yoshida onasidan yetim qolgan G'afur avval eski maktabda, so'ngra rus-tuzem maktabida ta'lim oldi. U Oktyabr to'ntarishidan keyingi yillarda muallimlar tayyorlov kursini bitirib, yangi usuldagi maktablarda o'qituvchilik qildi. 1923 yildan bolalar uyida mudir va tarbiyachi, so'ng «Kambag'al dehqon», «Qizil O'zbekiston», «Sharq haqiqati» gazetalari muharririyatlarida ishladi. Gazeta uning uchun dorilfunun rolini o'tadi, xalq hayotini o'rganish, unga faol aralashish yo'lida muhim vosita bo'ldi. G'afur G'ulom ijodiga nazar solsak, uning she'rlari, asarlari hamda hikoyalari naqadar ichki tuyg'u bilan ifodalanganini ko'rishimiz mumkin. Uning ijodi har jabhani o'z ichiga qamrab oladi. G'afur G'ulom ham ijodkor, ham adabiyotshunos va shu bilan birgalikda akademik- shoir hisoblanadi. Uning ijodiy mahsuli juda ko'p qamrovli bo'lib, ijodga turli usullar bilan yondashgan. Adibning "Vaqt" she'ri hammaga ma'lum va mashhur she'rlaridan biri hisoblanadi. G'afur G'ulomning "Vaqt" she'ri haqida gapiradigan bo'lsam, bu she'r adibning jiyani tufayli boshlanadi. Ya'ni "Vaqt" she'ri sarlavhasida ostida quyidagi so'zlar bitilgan: "Menga soat taqdim etgan jiyanim Hamidulla Husan o'g'liga bag'ishlangan" deb yozib qo'yilgan. Shoirning tasavvur osmonida portlagan ilk bandga nazar solsak, ko'ramizki, she'r ikki hodisa qiyosidan boshlanadi: "G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni Kapalak umriga qiyos etgulik..." Yuqorida keltirilgan suhbatdan bilamizki, alloma hodisaning ikkinchi sohilini bejiz izlamagan. Agar qiyoslanuvchi nuqta, maxraj – Lahza topilmasa, umuman "Vaqt" she'ri uchun qiyos printsiplari yetakchi printsiplari sifatida kashf etilmasa, she'r tug'ilmagan, dunyo yuzini ko'rmagan bo'lardi. "Qiyosga sig'mas taqqos" (bolalarning katta shoiri T.Adashboev she'ridan misra) deyilganidek, yalpi qiyos "Vaqt" she'rining struktur yaxlitligini ta'minlaydi, uning badiiy-struktur qiyofasini tayin etadi. She'rda dominant so'z va dominant tushuncha – lahza. Unda qadam-baqadam lahza va

unga ma'nodosh so'zlar fursat, nafas, dam, on, sekund uzoq vaqtga (mangulik, cheksizlik qadar), baqamti qo'yilib, lahzaning qadr-qimmati ("Bir onning bahosin o'lchamoq uchun, Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz") shunday quyma misralarda ta'kidlana boradi. Poetik fikr tantanasi, apofeoz oxirdan oldingi bandda yuz ko'rsatadi:

Har lahza zamonlar umridek uzun,

Asrlar taqdiri lahzalarda hal.

Umrndan o'tajak har lahza uchun

Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal.

Lahza uchun qo'yilgan haykalni lahzaga qo'yilgan haykal deb ham talqin qilish mumkin. Lahzaga haykal qo'yish uni to'xtatishga urinish, hech bo'lmasa, shunga ilinj demakdir. Ushbu nuqtada "Vaqt" she'ri insoniyatning buyuk badiiy obidalaridan bo'lmish Gyotening "Faust" tragediyasi bilan fikr-g'oya jihatidan kesishadi. Faustning Mefistofel, iblis bilan tuzgan shartnomasi aynan lahzaga oid edi:

Agar men bir onni ulug'lar bo'lsam,

"To'xta, ey soniya!" – deb aytsam agar,

Seni tutquningman mayli o'sha dam.

Ikki o'rtadagi kesishuv nuqtadan ma'no chiqarish maxsus ilmiy izlanishlar mavzusidir. Lekin bir fikrni aytish joiz. Nega Mefistofel, iblis o'ziga ishongan holda bunday shartnomaga jur'at qiladi, u inson, ya'ni Faust hech qachon lahzani (asliyatda Der Augenblick, ya'ni lahza) ulug'lamaydi, to'xta, ey soniya deb aytmaydi, ya'ni hayotdan shu darajada ma'naviy lazzat topa olishiga ishonmaydi, shekilli. Dastlab bunga Faustning o'zi ham ishonmaydi. Gyotening realist san'atkorligi shundaki, asar oxirida uning Fausti bunday baxtga (baxtli onga) to'liq erishmaydi, u faqat inson qachondir yetishi mumkin bo'lgan baxtli onlarni tasavvur qilibgina, ya'ni nasiya tariqasida deydi:

O'shal soniyani sezib oldindan,

Eng oliy lahzada turibman bu dam.

"Vaqt" she'rida esa "Umrndan o'tajak har lahza uchun" haykal qo'yish da'vat etiladi. Bu insonni tinimsiz ijodga, yaratishga, lahzani bo'ysundirishga undash demakdir. Binobarin, inson yaratgan buyuk ma'naviy obidalar ushbu "eng oliy lahzada" dunyoga kelgan va o'tkinchi, chopag'on vaqtga qo'yilgan sobit haykallar emasmi? She'rning ichki olamiga yanada chuqurroq kirishga imkon beradigan bir holat bor. Bu asar yaratilgan paytda hokimi mutlaq bo'lgan, shu bois she'rga suqilib kirgan Stalin nomi bilan bog'liq. "Vaqt" she'rining ilk nusxasida Stalin so'zi ikki karra uchraydi. Jami o'n besh band, oltmish misradan iborat she'rning dastlab 7-bandida, so'ng 14-bandida. Keyingi o'rinda bu so'z bir oz nojo'ya ishlatilganidek tuyuladi: "Har lahza Stalin umridek uzun...". Bu balki Stalin tirikligida o'zini oqlar, lekin she'r yozilganidan yetti yarim yil o'tib "xalqlar otasi" vafot etadi, u bor-yo'g'i (abadiyatga nisbatan, albatta) yetmish to'rt yil umr ko'rganini e'tiborga olsak, abadiyat tomon intilayotgan "uzun" so'zi bu o'rinda anchayin hayf ekani aniq bo'ladi. Shuning uchun Shoirning o'zi Stalin so'zi o'rniga bandga va she'rga uzukka ko'z qo'ygandek yarashgan "zamonlar" kalimasini qo'yib, asar potentsiyasidagi asl ma'noni go'yo qayta tiklaydi. Shu joyda Stalin zamonlar oldida kim bo'libdi, deging keladi. U bir tomondan sho'ro g'oyalarini qabul qilgani holda, ikkinchi tomondan esa

asriy zotiy o'zakdan voz kechmaganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "Qur'oni karim"dagi "Oyatul kursi" da ilohiy qalam bilan bitilgan "Faqt uning o'zi bordir.

U tirik va abadiy turguvchidir” kalomi shoirning ongida
Hayot sharobidan bir qultum yutay,
Damlar g’animatdir, umrzoq soqiy.
Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy
bo’lib jaranglagani bejiz emas. Shunda U, ya’ni Alloh, hamisha tirik ekan, asl
ma’rifatli, iymonli insonlarning umri boqiydir, degan ma’noni ko’rishimiz mumkin. Adibning
“Vaqt” she’ridagi ushbu misrasida “bir qultum” lahzaning boshqa bir shakli “nafas”ning
sharobga bog’liq ekanligini bildiradi. Barchamizga ma’lumki, nafas olinadi-chiqariladi. Sharob
esa qultum holidagi yutiladi. Bu yerda bir qultum sharob, bir lahzaga tenglashtirilyapti. Lahza
esa g’animat sifatida “umrzoq soqiy” bilan qiyoslangan. O’ta nozik ishora bilan “g’animat”
“umrzoq” qa, “damlar” mangulikning hoziru-nozir vakili hisoblangan “soqiy”ga
qarshilantirilmogda. Shuning uchun mangulikka sobit timsol kerak, uni esa jumlaning ushbu
qatorida ko’rishimiz mumkin: quyosh-ku falakda kezib yuribdi”, umrimiz boqiydir, umrimiz
boqiy. Vaqt qadrlay bilgan odam foydasiga yuradi. Ibn Qayyum aytadi: “Aslida, inson vaqti
uning umridir. Vaqt bulutlardek o’tib ketadi. Kishi o’z zamoni va vaqtining qadrini bilishi,
hatto biror lahzasini behuda o’tkazmasligi vashu asnoda eng afzal so’z va ishlarni bajarishi
lozim. Doimo niyati yaxshilikda bo’lishi va bajariladigan amallarida sustkashlik qilmasligi
kerak. Shunday ekan har birimiz, o’tayotgan har bir daqiqa, har bir onimizni nimaga sarf
qilayotganimizni anglashimiz kerak. Umr bir marotaba beriladi. Shu berilgan umrdan,
samarali foydalanish har birimizning o’z qo’limizda

References:

1. O’zbekiston Respublikasining maqullangan “Bolalarni ularning sog’lig’iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish” to’g’risidagi qonuni. T.: 2017
2. Abbosxo’jayev O. Umarova N. Qo’chqorov R. Mafkura poligonlaridagi olishuv. T.: Akademiya, 2007
3. Do’stmuhammad Xurshid. Ommaviy axborot vositalarini rivojlantirishning demokratik andozalari. – Toshkent: O’zbekiston, 2005.
4. Qaxxorova SH. Global ma’naviyat- globallashuvning g’oyaviy asosi. T.: Tafakkur, 2009
5. <http://google.uz>